

**“UzAuto Motors Powertrain” AJning ustav kapitalidagi
100% aksiyalar paketiga egalik qiluvchi yagona aksiyadori
“UzAuto Passenger Vehicles Management” MChJning,
aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha
52-2025/2-sonli qarori**

Toshkent sh.
A.Temur ko‘chasi, 13-uy

2025-yil 10-fevral
soat: 11:00

“UzAuto Motors Powertrain” aksiyadorlik jamiyatining (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat) 2025-yil 10-fevral holatiga depo hisobvarag‘i ko‘chirmasiga asosan, Jamiyatning 139 837 000 000 dona, ya‘ni 100% aksiyalar paketi “UzAuto Passenger Vehicles Management” MChJga tegishli.

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 58-moddasiga ko‘ra barcha oddiy aksiyalar bitta aksiyadorga tegishli bo‘lgan jamiyatda aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkazilmaydi. Ushbu Qonun va Jamiyatning Ustavi bilan aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi vakolatiga kiritilgan masalalar bo‘yicha qarorlar bunday aksiyador tomonidan yakka tartibda qabul qilinadi hamda yozma shaklda rasmiylashtiriladi.

Ushbu Qaror 2025-yil 10-fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Jamiyat Ustaviga muvofiq yozma shaklda rasmiylashtirildi.

1. Jamiyat Kuzatuv kengashi a‘zosi vakolatlarini muddatidan oldin tugatish to‘g‘risida.

Mazkur masala bo‘yicha so‘zga chiqqan Jamiyatning Bosh direktori v.v.b S.Gulyamov Kuzatuv kengashi a‘zosi Abduvaqqos Vohidovich Rafikov vakolatlarini muddatidan oldin tugatish taklifini berdi. Yuqoridagilarni inobatga olib,

Qaror qiladi (139 837 000 000 ovoz, 100%):

1. Jamiyat Kuzatuv kengashi a‘zosi Abduvaqqos Vohidovich Rafikov vakolatlari muddatidan oldin tugatilsin.

2. Jamiyat Kuzatuv kengashiga yangi a‘zosini saylash to‘g‘risida.

Mazkur masala bo‘yicha so‘zga chiqqan Jamiyatning Bosh direktori v.v.b S.Gulyamov Kuzatuv kengashi a‘ziligiga “O‘zavtosanoat” AJ Boshqaruv raisining Innovatsiya va investitsiyalar bo‘yicha o‘rinbosari Davron Abdulpattaxovich Xidoyatov nomzodini saylash masalasini taklif etdi. Yuqoridagilarni inobatga olib,

Qaror qiladi (kumulyativ ovoz berish orqali 139 837 000 000 ovoz, 100%):

2. Davron Abdulpattaxovich Xidoyatov Jamiyat Kuzatuv kengashi a‘ziligiga uch yil muddatga saylansin.

Ushbu qaror 2025-yil 10-fevral kuni imzolandi.

**“UzAuto Passenger Vehicles
Management” MChJ nomidan
Bosh direktor**


B. Axunov

